

O'ZBEKISTONDA PENSIYA TIZIMINI ZAMONAVIY TALABLARGA MOSLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Zokirova Gavxar Abdumannonovna

Termiz davlat universiteti,

Moliya kafedrası o'qituvchisi

E-mail: zokirovag@tersu.uz

ORCID ID: [0009-0002-4200-4424](https://orcid.org/0009-0002-4200-4424)

Tel: +998 (91)-580-03-90

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida amaldagi pensiya tizimining institutsional va moliyaviy asoslari chuqur tahlil qilinadi hamda uni zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zarurati ilmiy asoslanadi. Xususan, demografik o'zgarishlar, aholining qarish tendensiyasi, norasmiy bandlikning yuqori darajasi va raqamli iqtisodiyot sharoitida pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash dolzarb masala sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida pensiya tizimining amaldagi "taqsimot" modelining cheklovlari aniqlanib, uni diversifikatsiya qilish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, pensiya tizimini isloh qilish doirasida ko'p pog'onali modelni joriy etish, jamg'arib boriladigan pensiya mexanizmlarini rivojlantirish, raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish hamda investitsion boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari pensiya tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pensiya tizimi, ijtimoiy himoya, moliyaviy barqarorlik, pensiya ta'minoti, jamg'arib boriladigan pensiya, raqamlashtirish, norasmiy bandlik, investitsion boshqaruv

Abstract. This thesis provides an in-depth analysis of the institutional and financial foundations of the current pension system in the Republic of Uzbekistan and scientifically substantiates the need to adapt it to modern economic conditions. In particular, ensuring the stability of the pension system in the context of demographic changes, the aging trend of the population, a high level of informal employment, and the digital economy is considered an urgent issue. During the study, the limitations of the current “distribution” model of the pension system were identified and the need for its diversification was justified. Also, scientific proposals were developed within the framework of pension system reform on the introduction of a multi-tiered model, the development of funded pension mechanisms, deepening digitalization processes, and increasing the efficiency of investment management. The results of the study serve to ensure the long-term financial stability of the pension system and strengthen the principles of social justice.

Keywords: pension system, social protection, financial stability, pension provision, funded pension, digitalization, informal employment, investment management

Аннотация. В данной работе представлен углубленный анализ институциональных и финансовых основ действующей пенсионной системы Республики Узбекистан и научно обоснована необходимость ее адаптации к современным экономическим условиям. В частности, актуальной проблемой рассматривается обеспечение стабильности пенсионной системы в условиях демографических изменений, старения населения, высокого уровня неформальной занятости и цифровой экономики. В ходе исследования были выявлены ограничения существующей «распределительной» модели пенсионной системы и обоснована необходимость ее диверсификации. Также в рамках реформы пенсионной системы были разработаны научные предложения по внедрению многоуровневой модели, развитию накопительных пенсионных механизмов, углублению процессов цифровизации и повышению

эффективности управления инвестициями. Результаты исследования служат обеспечению долгосрочной финансовой стабильности пенсионной системы и укреплению принципов социальной справедливости.

Ключевые слова: пенсионная система, социальная защита, финансовая стабильность, пенсионное обеспечение, накопительная пенсия, цифровизация, неформальная занятость, управление инвестициями.

Kirish. Aholini ijtimoiy himoya qilish har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Davlat o'zining ijtimoiy himoya dasturi orqali aholisining farovon yashashi, imkoniyatlardan keng foydalanishini ta'minlaydi. Pensiya tizimi esa ushbu ijtimoiy himoya mexanizmining muhim elementidir. U fuqarolarning qarilik davridagi moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Pensiya tizimi qonuniy asoslarda umrbod va vaqtinchalik muddatlarda fuqarolarni moliyaviy ta'minotini kafolatlaydi.

Zamonaviy sharoitda global demografik o'zgarishlar, mehnat bozori transformatsiyasi va iqtisodiyotning raqamlashtirilishi pensiya tizimlarini qayta ko'rib chiqishni taqazo etmoqda. O'zbekiston sharoitida ham ushbu omillar pensiya tizimini chuqur isloh qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar sharhi. (Literature Review) Pensiya tizimini isloh qilish va o'zgartirishlar kiritish masalari xorijiy olimlardan Vagg va Diamond ishlarida keng yoritilgan bo'lib, ular mamlakatda pensiya tizimining ko'p pog'onali modellari asosida tashkil etish samarali ekanligini asoslab berishgan. Shuningdek, Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "Moliyaviy barqarorlik konsepsiyasi" da pensiya tizimini diversifikatsiya qilish orqali mamlakat moliyaviy barqarorlikka erishishi mumkinligi ta'kidlangan.

Mahalliy olimlardan, Achilov (2022) O'zbekistonda pensiya tizimidagi muammolarni tahlil qilib, tizimning moliyaviy ta'minotidagi va norasmiy bandlik

bilan bog'liq kamchiliklarni ko'rsatib o'tgan. Mirzamahmudova (2024) esa pensiya tizimini isloh qilishda davlat pensiyalarini hisoblash tatiblari va ta'minotida isloh qilish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Biroq ushbu tadqiqotlardan farqli ravishda ushbu maqolada pensiya tizimini raqamlashtirish va zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalangan holda real vaqtdagi monitoringlar orqali yechimlarga erishish hamda investitsion boshqaruv samaradorligi kabi jihatlar kompleks yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

Amaldagi pensiya tizimi va uning xususiyatlari. Hozirgi kunda O'zbekistonda pensiya tizimi asosan "taqsimot" (PAYG) modeliga asoslangan bo'lib, unda ishlovchi aholi tomonidan to'lanayotgan ijtimoiy badallar hisobidan pensionerlar ta'minoti amalga oshiriladi. Ushbu modelning asosiy afzalligi asosan qisqa muddatli ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bo'lsa-da, uzoq muddatda demografik bosimlarga nisbatan sezgir hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan islohatlar: pensiya va ijtimoiy nafaqalarning oshirilib borishi, raqamli xizmatlarni joriy qilish orqali pensiyani proaktiv tayinlashni joriy qilish tizimda shaffoflikni oshirishga imkon berdi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda kuchli ijtimoiy siyosat yuritilmoqda, aholining ehtiyojmand qatlami huquq va manfaatlari samarali himoya qilinmoqda. Xususan, ijtimoiy nafaqa oluvchilar va pensionerlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, qator yangiliklar joriy etilmoqda.

O'zbekistonda yillar davomida pensiya tizimini isloh qilish bo'yicha sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar tizimning shaffofligini ta'minlashga, aholiga qulaylik yaratishni va ijtimoiy adolatni kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Avtomatik pensiya tayinlash tizimi joriy qilindi. 2025-yildagi pensiya o'zgarishlar pensiyaga chiqish jarayonida vaqtni tejash va ortiqcha hujjatlardan xalos qildi.
2. Pensiya va ijtimoiy nafaqalarning oshirilib borilishi belgilandi. Pensiya va turli ijtimoiy yordam miqdorlari oshirildi. Jumladan, yoshga doir nafaqa 745 000 so'mdan 820 000 so'mga, nogironlik nafaqasining eng kam miqdori esa 1 027 000 so'mgacha oshirildi. Boquvchisini yo'qotganlar va nogiron bolalar uchun mo'ljallangan nafaqa miqdorlari ham sezilarli darajada ko'tarildi. Ushbu o'zgarishlar aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.
3. Raqamlashtirish va elektron xizmatlarning kengaytirildi. Pensiya to'lovlari va xizmatlari to'liq raqamlashtirildi. Fuqarolar pensiyalarini qog'oz sertifikatlarsiz, masofaviy tarzda olish imkoniyatiga ega bo'lishdi. "Xalq banki" mobil ilovasi va davlat xizmatlari portali orqali pensiya mablag'larini boshqarish qulayligi yaratildi.
4. Ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi. Islohotlarning asosiy maqsadi barcha toifadagi fuqarolar, jumladan, kam ta'minlanganlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni moddiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishdir. Yangi tizim nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki aholi turmush darajasini oshirishni ham ko'zda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada turli ilmiy tahlil usullaridan foydalanildi:

Birinchi, o'rganilgan demografik va moliyaviy ko'rsatkichlar statistik tahlil qilindi;

Ikkinchi, qiyosiy tahlil qilish usuli orqali xorijiy davlatlar pensiya tizimi bilan O'zbekiston pensiya tizimi solishtirilib o'rganildi;

Uchinchi, pensiya tizimi ko'rsatkichlari boshqa moliyaviy sohalar (soliq, sug'urta, bank) bilan bog'lagan holda tizimli tahlillar olib borildi;

To'rtinchidan, pensiya tizimi sohasidagi mavjud muammolar va ularning yechimlari o'rtasidagi bog'liqliklar mantiqiy tahlil qilishga erishildi.

Ushbu o'rganishlar qiyosiy tahlil usuli orqali pensiya tizimining ko'p pog'onali modelining afzalliklarini aniqlashga yordam bergan bo'lsa, statistic tahlil orqali esa, Pensiya jamg'armalarida moliyaviy bosim ortib borayotganini ko'rib chiqishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga asosan, fuqarolarga pensiya tayinlash uchun qo'shimcha ravishda Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilish imkoniyati yaratildi, fuqarolarning ish staji va badallari raqamlashtirildi, pensiya tayinlash jarayonlari soddalashtirildi. Bu o'zgarishlar tizim samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, tizimda hali ham tizimli muammolar mavjud:

1. Pensiya ta'minotiga demografik omillarning ta'sir ko'rsatish muammosi: Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi yil sayin ortib bormoqda. Bu esa pensiya yoshidagi fuqarolar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Natijada ishlovchilar soni bilan pensiya oluvchilar soni o'rtasidagi nisbat farqi oshib bormoqda. Bu holat taqsimot modelining moliyaviy barqarorlining o'z ta'sirini ko'rsatadi.
2. Mamlakat aholining norasmiy ishlarda bandlik darajasi: Norasmiy sohada faoliyat yuritayotgan fuqarolar ijtimoiy badallar to'lamaydi yoki to'liq to'lamaydi. Uning natijasida, pensiya jamg'armasiga ijtimoiy badallar tushumi kamayadi, kelajakda minimal pensiya oluvchi fuqarolar soni ortib boradi, davlatda pensiya tizimning ijtimoiy adolatlilik darajasi pasayishiga olib keladi.
3. Pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligini ta'minlash muammosi: Aholiga to'lanayotgan pensiya to'lovlari hajmining yil sayin ortib borishi davlat budjetiga qo'shimcha yuk bo'lmoqda. Bu holat pensiya tizimi sohasida

o'zgartirishlar qilishni va hisob-kitoblar tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

4. Pensiya ta'minoti sohasida rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli emasligi: Amaldagi pensiya tizimida ko'proq badal to'lash hamda yuqori pensiya olish o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada takomillashtirilmagan. Bu esa ishlovchi fuqarolarning rasmiy ishlashiga va yuqori badal to'lashga qiziqishini pasaytiradi.

Bu kabi muammolarni O'zbekiston pensiya tizimida yuz bermasligi uchun yechim topish, ularni bartaraf etishda tizimni zamonaviylashtirish, xorijiy tajribalardan foydalanish alohida o'rin egallaydi. Mamlakatimizda pensiya tizimining barqaror faoliyat yuritishi uchun tizimli islohatlar o'tkazish va chora-tadbirlar qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Хулоса O'zbekiston pensiya tizimi islohatlarni talab qiluvchi strategik sohalardan biri hisoblanadi. Tizimni modernizatsiya qilish orqali uning moliyaviy barqarorligini va ijtimoiy adolat darajasini oshirish mumkin. Buning uchun tizimda o'zgartirishlar kiritish uchun quyidagi **takliflarni** amalga oshirishimiz zarur:

Birinchidan, O'zbekistonda pensiya tizimining ko'p pog'onali modelini tashkil etish orqali tizim faoliyatini kengaytirish zarur. Davlatimizda pensiya tizimini birinchi pog'onada davlat pensiyasi bo'lsa, ikkinchi pog'onada jamg'arib boriladigan pensiya tizimi turadi. Bularga qo'shimcha sifatida ixtiyoriy nodavlat pensiya jamg'armalarini joriy qilish, moliyaviy barqarorlikni oshiradi va fuqarolarning kelajagi uchun shaxsiy mas'uliyatini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, Raqamli pensiya platformalarini rivojlantirish orqali raqamli ilovalar va dasturlar bilan ishlash shaffoflikni ta'minlaydi hamda aholining tizimga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Uchinchidan, mamlakatimizda aholining norasmiy bandligini qisqartirish zarur. Buning uchun fuqarolarni o‘z-o‘zini band qilish jarayonida soddalashtirilgan badal tizimini joriy etish hamda aholining rasmiy band qismiga turli rag‘batlantiruvchi imtiyozlar berish orqali erishish mumkin.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda moslashuvchan pensiya yoshini joriy etish. Fuqarolarning pensiyaga chiqish yoshini menhat va kasb toifalariga mos holda o‘zgartirib borish, ya’ni, demografik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda pensiya yoshini bosqichma-bosqich qayta ko‘rib chiqish zarur.

Beshinchidan, Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlikni takomillashtirish zarur. Ixtiyoriy va majburiy jamg‘arilgan mablag‘larning investitsion portfelini shakllantirish, Pensiya jamg‘armasining uzoq yillar moliyaviy barqarorligini ta’minlash imkonini beradi.

O‘zbekistonda pensiya tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish hamda barqaror faoliyat yuritishida berilgan takliflarni kompleks va bosqichma-bosqich amalga oshirish talab etadi. Ko‘p pog‘onali modelni joriy etish, raqamlashtirishni chuqurlashtirish, norasmiy bandlikni qisqartirish, investitsion boshqaruvni takomillashtirish hamda huquqiy va aktuar hisob-kitoblarga asoslangan yondashuvni kuchaytirish orqali tizim samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-1066-son, 19.05.2025
3. World Bank. (1994). *Averting the Old Age Crisis: Policies to Protect the Old and Promote Growth*. Washington D.C.

4. Barr, N., & Diamond, P. (2008). *Reforming Pensions: Principles and Policy Choices*. Oxford University Press.
5. Achilov, U. (2022). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi muammolari va hal etish yo'llari. *Moliya va bank ishi*, 8(4), 42–49.
6. Allianz Research. (2023). *Allianz Global Pension Report 2023: Reforming against the demographic clock*. Allianz SE. Retrieved from.
7. Mirzamahmudova M. O. (2024). Davlat pensiya ta'minoti va pensiyalarni hisoblash. - O'quv qo'llanma. – BOOKMANY PRINT- 250 b.
8. Gavxar Zokirova. (2024). O'zbekistonda pensiya tizimini islohot qilish zarurligi. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2(12), 10–14.
9. <https://www.imv.uz> Budjetdan tashqari pensiya jamgarmasi sayti ma'lumotlari